

INNOVATIVE ACADEMY

TASHKENT PHARMACEUTICAL INSTITUTE

ISSN 2181-287X

# EURASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES

## COLLECTION OF MATERIALS FROM THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE «LIFE SCIENCES FOR THE SUSTAINABLE FUTURE-2024»

VOLUME 4, ISSUE 6: SPECIAL ISSUE (EJMNS)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI

YOSHLAR AKADEMIYASI

"INNOVATIVE ACADEMY" ILMIY TADQIQOTLAR MARKAZI

# «BARQAROR KELAJAK UCHUN HAYOT FANLARI-2024» MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLAR TO'PLAMI

**2024 yil 5-iyun**

# COLLECTION OF MATERIALS

## FROM THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE «LIFE SCIENCES FOR THE SUSTAINABLE FUTURE-2024»

**June 5, 2024**

# СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ

## МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ « НАУКИ О ЖИЗНИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО БУДУЩЕГО-2024»

**5 июня 2024 г.**

**Conference has been listed in different indexings**

The official website of the journal:
**www.in-academy.uz**

Tashkent 2024

**ISSN: 2181-287X**

**«Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences»** ilmiy-uslubiy jurnali: №6. 2024 yil. Maxsus son

Ushbu to'plamda Toshkent farmatsevtika instituti tomonidan 2024 yil 5-iyun kuni tashkil etilgan «Barqaror kelajak uchun hayot fanlari-2024» nomli ilmiy-amaliy konferensiyasiga hamda "Yoshlar va biznesni qo`llab-quvvatlash" yiliga bag'ishlangan "Farmatsevtikada iqtidorli yoshlarning ilmiy salohiyati" mavzusidagi talabalar uchun "81-Talabalar Ilmiy Jamiyati" ilmiy-amaliy anjumaniga qabul qilingan maqola hamda tezislar **«Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences»** ilmiy-uslubiy jurnali 2024 yil 6-maxsus sonida nashr etilgan.

**«Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences»** ilmiy-uslubiy jurnali O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan olingan №1205-sonli guvohnomaga ega.

Jurnal Gruziyaning **Universal Impact Factor**ida 8.3 ko'rsatkich bilan hamda Yevropaning **Scientific Journal Impact Factor**ida 7.921 ko'rsatkich bilan baholangan.

Jurnal tarkibidagi barcha maqolalarga **DOI** unikal raqami biriktirilib, **Zenodo, Open Aire, Google Scholar** xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

OAK tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan jurnallar ro'yxatidagi milliy jurnallarda chiqarilgan maqolalar sifatida rasman tan olinadi.

**Asos:** O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxati 3-sahifasi. – Toshkent: 2019. – 160 b.

Jurnal materiallaridan professor-o'qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktarantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o'qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

*Eslatma! Jurnal materiallari to'plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.*

**© Toshkent farmatsevtika instituti**

**© Innovative Academy RSC**

**© Mualliflar**

TAHRIRIYAT

Tahririyat 1205-sonli guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

(Tekshirish uchun skanerlang. Maxsus kod: 0889)

Bosh muharrir
Mamatqulov Zuhridin Urmonovich
Toshkent farmatsevtika instituti O‘quv ishlari bo‘yicha prorektori v.b., PhD

Mas’ul kotib
I.B.Shermatova
Toshkent farmatsevtika instituti iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bólimi boshlig’I, PhD

Nashrga tayyorlovchi
Akbarov Nurislom Axtamjon o‘g‘li - Tahrirlovchi
Akbarova Dildora Axtamjon qizi – Texnik muharrir
Quchqarov Azamat Murotjon o‘g‘li – Texnik muharrir

TAHRIR KENGASHI A’ZOLARI

K.S.Rizayev
Toshkent Farmatsevtika instituti Rektori, t.f.d.

N.S.Normaxamatov
Toshkent farmatsevtika instituti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bóyicha prorektor k.f.d.

M.T.Mullajonova
Toshkent farmatsevtika instituti ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, farm.f.n. dotsent;

A.A. Tóraboyev
Toshkent farmatsevtika instituti ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'limi boshlig'i

I.B.Shermatova
Toshkent farmatsevtika instituti iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bólimi boshlig’i, PhD

Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences
ISSN: 2181-287X

# ACHCHIQ ERMON QURUQ EKSTRAKTI SIFAT KO'RSATKICHLARINI O'RGANISH

**Axmedova M. K.**
**Yuldasheva Sh. X.**
Toshkent farmatsevtika instituti
shaxlo.dr@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.12526803

**Mavzuning dolzarbligi.** O'zbekiston Respublikasi o'simlik xomashyosi zahirasiga boy bo'lib, ularning kimyoviy tarkibi turli biologik faol moddalarga ega.

**Achchiq ermon (shuvoq) -** Artemisia absinthium L.- ko'p yillik, bo'yi 50-100 sm ga etadigan o't o'simlik. Mahsulot achchiq shuvoqning er ustki qismi va ildiz oldi barglaridan iborat. Achchiq ermonning kimyoviy tarkibi juda boy. O't va barglari 2% gacha efir moylarini o'z ichiga oladi, uning tarkibiga tuyon, tuyol, fellandren, seskviterpen laktonlar, absintin, anabsintin, artabsin achchiq ta'm beruvchilar, shuningdek, flavonoid va oshlovchi moddalar kiradi. Adabiyotlarda achchiq shuvoq antioksidant, antifungal, antimikrob, antigelmintik, yaralarga qarshi, anti-kanserogen, gepatoprotektiv, immunomodulyator va sitotoksik ta'siri bor deb ko'rsatilgan.

**Tadqiqot maqsadi.** Achchiq ermon quruq ekstrakti sifat ko'rsatkichlarini o'rganish tadqiqot maqsadi hisoblanadi.

**Tadqiqot usullari.** Achchiq ermon quruq ekstrakti 1:2 nisbatda perkolyasiya usulida 70% etil spirti yordamida olindi. Uning sifat ko'rsatkichlaridan: pH ko'rsatkichi, quruq qoldiq miqdori, og'ir metallar, biofaol moddalar sifat tahlili o'rganildi.

Achchiq ermon quruq ekstraktidan 5% suvli ajratma tayyorlanib, Shvetsariyaning Mettler Toledo firmasida ishlab chiqilgan "Seven Easy" pH markali universal potensiometrida pH ko'rsatkichi aniqlandi. Achchiq ermon quruq ekstraktining quruq qoldiq miqdorini va og'ir metallarni aniqlash O'zR DF va XII DF da keltirilgan usul yordamida amalga oshirildi. O'zR DF talablariga ko'ra, ekstraktlar tarkibidagi og'ir metallarni aniqlashda sinov eritmasining rangi solishtirma eritma rangidan intensivligi yuqori bo'lmasligi kerak. Achchiq ermon quruq ekstraktining sifat tahlili uchun flavonoidlar va oshlovchi moddalarga xos sifat reaksiyalar olib borildi.

**Natijalar.** Achchiq ermon quruq ekstrakti pH ko'rsatkichi yuqorida keltirilgan usulda o'rganilganda o'rtacha 4,84 ni, quruq qoldiq miqdori esa o'rtacha 3,86% ni tashkil etdi. Olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

**1-jadval**

**Achchiq ermon quruq ekstraktining son ko'rsatkichlari**

| № | pH ko'rsatkichi | Quruq qoldiq miqdori, % |
|---|---|---|
| 1 | 4,84 | 3,88 |
| 2 | 4,87 | 3,82 |
| 3 | 4,81 | 3,87 |
| O'rt. | 4,84 | 3,86 |

Achchiq ermon quruq ekstrakti tarkibidagi og'ir metallar miqdori 0,001% dan ortiq bo'lmadi.

Achchiq ermon quruq ekstraktining sifat tahlilida quruq ekstraktining suvda eritib, tayyorlangan eritmasiga alyuminiy (III) xloridning 5% li spirtli eritmasi tomizilsa, sariq rang hosil bo'ldi (flavonoidlarga xos reaksiya). Eritmaga 1ml qo'rg'oshin atsetat eritmasidan

tomizilsa, jigarrang cho'kma hosil bo'ldi (oshlovchi moddalarga xos reaksiya). Achchiq ermon quruq ekstrakti tarkibidagi flavonoidlar yig'indisi miqdori YuSSX usulida tahlil qilindi. Quruq ekstrakt tarkibidagi flavonoidlar yig'indisi (lyuteolin hisobida) o'rtacha miqdori 5,596 mg/g ni tashkil etdi.

**Asosiy natijalar va xulosalar.** Achchiq ermon quruq ekstrakti sifat tahlili amalga oshirildi. Unga ko'ra, achchiq ermon quruq ekstrakti pH ko'rsatkichi 4,84 ni, quruq qoldiq miqdori esa o'rtacha 3,86% ni tashkil etdi. Quruq ekstrakt tarkibidagi flavonoidlar va oshlovchi moddalarga xos sifat reaksiyalar o'tkazildi. Quruq ekstrakt tarkibidagi flavonoidlar yig'indisi (lyuteolin hisobida) o'rtacha miqdori 5,596 mg/g ni tashkil etdi.